Canadian School of Tashkent

# O'ZBEKISTONDAGI BIRINCHI KANADA MAKTABIGA

# **Prospectus** 2022

# Xush kelibsiz

“Canadian School of Tashkent” bolalarni ajoyib kelajak sari ilhomlantiradi.

Biz O’zbekistonning eng yaxshi va iqtidorli yoshlarini tarbiyalashga bel bog’lagan, katta maqsadlar sari intiluvchi novatorlardan iborat jamoamiz.

Biz o’zgacha fikrlaymiz va talabalarimizni o’ziga xos usulda ilhomlantiramiz, talabalarni raqamli texnologiyalar olamiga jalb qilgan holda, ularning intellektual qiziqishi va xarakterini shakllantiramiz.

Biz shunchaki oddiy maktab emasmiz. Biz orzular va yangi maqsadlar paydo bo’ladigan o’quv dargohimiz. Imkoniyatlar dunyosiga xush kelibsiz.

# Ta'sischining kirish so'zi

**"Canadian School of Tashkent"**
**O'zbekistonda tashkil etilgan birinchi Kanada maktabidir.**

Bizni O'zbekistonning boy madaniy merosi va Kanadaning a'lo darajadagi ta'lim tizimi hamda ko'p madaniyatli, ikki tilda so'zlashuvchi va mehmondo'st mamlakat ekanligi ilhomlantiradi. Kanada ta'lim tizimi yosh iqtidorlarga ta'lim olish, o'sish va rivojlanish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. 21-asr ta'lim tizimini taklif qilish orqali biz talabalarni hali mavjud bo'lmagan, ammo tez orada paydo bo'ladigan yangi kasblarga - boy dunyoga tayyorlaymiz.

Biz Kanada ta'lim tizimi va raqamli texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan cheksiz imkoniyatlardan talabalarimizni kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday murakkab vaziyatlarga tayyorlash uchun foydalanamiz.
Siz "Canadian School of Tashkent"-da talabalarimizning murakkab, akademik jihatdan talabchan va shaxsiy rivojlanish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega ijobiy ta'lim muhitining bir qismi ekanligiga guvoh bo'lasiz.

Bizning xodimlarimiz, talabalarimiz va ularning oilalari har bir inson o'z salohiyatini to'liq ochib bera oladigan hamda hamisha qadrlanadigan jamiyatni yaratish uchun birgalikda mehnat qilmoqdalar. Biz o'zaro hamkorlikka asoslangan, ilhomlantiruvchi muhitda mustahkam jamiyatni qurishga asos bo'ladigan xalqaro tajribamizni siz bilan bo'lishayotganimizdan faxrlanamiz.
Malakali xodimlarimiz va o'qituvchilarimiz, xalqaro o'quv dasturi, raqamli kontent, xalqaro talablarga mos kampus hamda Kanadaning yetakchi o'quv dargohlari bilan hamkorlik bizni Toshkentdagi eng yaxshi maktab sifatida e'tirof etilishimizga zamin yaratadi.

Men maktabimizga kelib, bizning do'stona muhitimizni o'z ko'zingiz bilan ko'rishingizni taklif qilaman.

Eng yaxshi tilaklar bilan,

Roin Rahmoni
Ta'sischi

**"Kanada ta'lim tizimi yosh iqtidorlarga ta'lim olish, o'sish va rivojlanish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi."**

# Umumiy ma'lumot

## O'ZBEKISTONDAGI YAGONA KANADA MAKTABI

**SINFDAGI TALABALARNING O'RTACHA SONI** **18**

Maktabgacha ta'lim (2-5 yosh),
Boshlang'ich ta'lim (6-11 yosh),
O'rta ta'lim (12-14 yosh)

**O'QITISH TILI:**
**INGLIZ TILI**

**QO'SHIMCHA O'RGATILADIGAN TILLAR:**
**RUS, O'ZBEK TILLARI**

Kampusimiz Toshkent shahrining Mirobod tumanida joylashgan bo'lib, u Toshkentning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi oilalar uchun qulay joylashuvga ega.

## TALABALARIMIZ QAYERDA TA'LIM OLADILAR?

## BIZNING O'QITUVCHI-LARIMIZ

Ijodiy fikrlaydigan, intiluvchan, xalqaro ta'limga ega hisoblanadi.

**20+**

**BIRGALIKDA BAJARILADIGAN / DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR**

- Sport
- Klublar va hamjamiyatlar
- San'at
- Robototexnika
- Makerspace
- va boshqalar

# Bizning qarashlarimiz

**O'sishga va mehnat qilishga intiladigan qiziquvchan hamda mas'uliyatli insonlar jamoasi.**

## Bizning maqsadimiz

Mukammallik va o'zaro hamkorlik ruhida, qiziquvchanlik hamda xulq-atvorni tarbiyalab borish.

## Bizning qadriyatlarimiz

Bizning qadriyatlarimiz biz qilayotgan har bir ishning asosini tashkil qiladi. Jamoamizning har bir a'zosi umumiy qadriyatlarimizni qo'llab-quvvatlaydi degan umiddamiz.

**Qiziquvchanlik:** Maqsadimiz va qarashlarimiz asosi bo'lgan qiziquvchanlik tushunchasi izlanuvchanlik tuyg'usini tarbiyalashga hamda ta'limga bo'lgan

**Jamoat ishlari:** Faqatgina jamiyatimiz bilan birlashish va uni himoya qilish orqali biz bir jamiyat sifatida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishimiz mumkin.

**Yutuqlarga erishish:** fidoyilik, iste'dod va mehnat orqali eng katta shaxsiy yutuqlarga erishishga intilish.

**Ijodkorlik:** har bir kunga ishonch, innovatsiya va yaratuvchanlik hissi bilan yondashish.

**Jamoada ishlash:** Har bir inson ajoyib ishlarni amalga oshirishga qodir, ammo biz jamoa sifatida birlashsak va jamoa bo'lib harakat qilsak, biz yanada kuchli bo'lamiz.

**Hurmat:** boshqalarning fazilatlari, yutuqlari va e'tiqodlariga hurmat bilan qarash, bag'rikenglik hissi.

# Kanada ta'lim markazi

**Kanada ta'lim sektori yuqori sifat standartlari va ajoyib mavqeyi bilan dunyoga mashhur.**

Kanada ta'lim tizimi ingliz va fransuz tillarida yuqori sifatli ta'lim beriladigan maktablarga ega, hayot sifati yuqori bo'lgan va chet el talabalari uchun ish topish hamda Kanadada doimiy rezident bo'lish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lgan ta'lim markazi sanaladi.

Kanada dunyodagi eng rivojlangan va mehmondo'st mamlakatlardan biri sifatida chet el talabalari uchun o'rta maktabdan oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim spektridagi eng yaxshi tanlov hisoblanadi.

Kanadada hayot kechirish va ta'lim olishning nisbatan arzonligi uni chet ellik talabalar uchun Buyuk Britaniya, Avstraliya yoki Qo'shma Shtatlarga qaraganda qulay mamlakatga aylantiradi.

O'zbekistondagi yagona Kanada maktabi sifatida biz Kanadaning jahonga mashhur ta'lim tizimini namoyish etish, iqtidorli va global miqyosda fikrlaydigan talabalar avlodini tarbiyalash kabi noyob imkoniyatga egamiz.

Bu Kanada va O'zbekistonni madaniy-ma'rifiy almashinuv dasturlari hamda tashabbuslari, jumladan, talabalarning fikr almashish dasturlari, o'quv tashriflari va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik orqali o'zaro jipslashtirish imkoniyatidir.

**"Kanada dunyodagi eng rivojlangan va mehmondo'st mamlakatlardan biri sifatida chet el talabalari uchun o'rta maktabdan oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim spektridagi eng yaxshi tanlov hisoblanadi."**

# Ta’limga bo‘lgan o‘zgacha yondashuv

**Eng yaxshi ta’lim tizimi yuqori malakali o‘qituvchilar, professional xodimlar va o‘qitishga bo‘lgan innovatsion yondashuvlar orqali taqdim etiladi.**

“Canadian School of Tashkent” uni boshqalardan ajratib turadigan o‘ziga xos ta’lim yondashuviga ega. Biz talabalarning raqamli dunyoda muvaffaqiyat qozonishlari uchun ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilayotgan O‘zbekistondagi birinchi Kanada maktabi ekanimizdan faxrlanamiz.

Biz yuqori malakali o'qituvchilar, professional xodimlar va ta’limga bo‘lgan innovatsion yondashuvga ega dunyodagi eng yaxshi ta’lim tizimidan foydalanamiz. Raqamli texnologiyalarni akademik jihatdan murakkab ta’lim tizimimizga integratsiya qilish orqali biz talabalarimiz uchun cheksiz imkoniyatlarni yaratamiz, chunki raqamli ta'lim yondashuvi har bir talabaning qobiliyati va ko'nikmalariga moslashtirilgan.

Bundan tashqari, raqamli ta’lim tizimi juda samarali hisoblanadi, zero u talabalarimizni qo‘shimcha o‘quv resurslari, multimedia va qo‘shimcha o‘quv materiallari kabi vositalar yordamida real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga undaydi.

“McGraw Hill” ta'lim kontentini o'quv dasturimizga kiritish orqali biz barcha yoshdagi talabalarda ijodkorlik, qiziquvchanlik va bilimga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otamiz.

Biz intiluvchan talabalarning keyingi avlodini ilhomlantirishga bel bog’lagan yuqori malakali va serg'ayrat xodimlar hamda o'qituvchilardan iborat jamoamiz borligidan faxrlanamiz. O'qituvchilarimiz har bir talabaning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga intiladi. Talabalarning muvaffaqiyatiga qaratilgan keng ko'lamli tashabbuslar orqali mutaxassislarimiz talabalarni bilim olish borasida ustun bo'lishlari, yangi ko'nikmalarni o'rganishlari, darsdan tashqari ham izlanishlari va o'zlarining iste'dodlari hamda qiziqishlarini hayot davomida ta'lim olish uchun motivatsiya sifatida ishlatishlarini nazorat qilishadi, ularni bunga ilhomlantirishadi

Kanadaning madaniy o'ziga xosligi va miqyosda tan olingan ta'lim tizimidan ilhomlanib, biz talabalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish va qiziquvchanlik asosiy o'rin tutadigan o'quv muhitida rivojlanishga undaymiz.

Siz bizning kampusimizga tashrif buyurishingiz, virtual turlarimiz bilan tanishishingiz yoki Kanada maktabidagi ilhomlantiruvchi va yuqori darajadagi ta’lim obyektlari, xizmatlari va imkoniyatlari haqida ko'proq bilish uchun xodimlarimizdan biri bilan gaplashishingiz mumkin.

**“Bizning talabalarimiz o‘qish tugaganidan keyin ham ular bilan qoladigan va yanada takomillashib boraveradigan shaxsiy qiziqishlari hamda hayotiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Cheksiz imkoniyatlar dunyosiga xush kelibsiz!”**

CANADIAN SCHOOL OF TASHKENT

# KANADA AN'ANALARIGA KO'RA

# Bizning jamoa

**Biz talabalarning bor salohiyatini ochib berish uchun O'zbekiston ta'lim sohasidagi eng yaxshi o'qituvchilar va yetakchi mutaxassislarni birlashtiramiz.**

Biz talabalarning bor salohiyatini ochib berish uchun O'zbekiston ta'lim sohasidagi eng yaxshi o'qituvchilar va yetakchi mutaxassislarni birlashtiramiz. Mutaxassislarimiz jamoasi O'zbekistonda ham, miqyosda ham ta'lim sohasida ko'p yillik amaliy tajribaga ega.

Bizning o'qituvchilarimiz shaxsiy yondashuv asosida Kanada tizimi bo'yicha ta'lim berish va ta'lim tizimidagi eng so'nggi raqamli texnologiyalar orqali talabalarga o'ziga xos ta'lim dasturini taqdim etish uchun kerakli malaka va tajribaga egalar.

Biz o'zimiz intilayotgan ta'lim natijalariga erishish uchun yuqori malakali xodimlarni saralab olganmiz.

O'qituvchilar jamoasi mahalliy, kanadalik va boshqa xalqaro o'qituvchilardan iborat bo'lib, ular o'quv dasturiga mas'uliyat, professionallik, mehnatsevarlik va 21-asrdagi raqamli ta'lim vositalarini doimiy ravishda qo'llash orqali yondashadilar.

**"Bizning o'qituvchilarimiz o'zlari qilayotgan ishga sidqidildan yondashadilar va har bir talabaning salohiyatini to'liq ochib berishga intiladilar."**

# O'quv rejasi

**Ta'lim sifatini oshirish O'zbekistondagi yetakchi maktab bo'lish yo'lida qilayotgan barcha ishlarimizning asosini tashkil etadi.**

Ta'lim sohasidagi eng yaxshi o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilish, raqamli ta'limni qo'llash va talabalar muvaffaqiyati uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etish orqali biz jahon miqyosidagi ta'lim muhiti uchun poydevor yaratmoqdamiz.

Biz raqamli ta'lim yondashuvlari orqali yanada takomillashtiriladigan Kanada ta'lim dasturining o'zaro uyg'unlashuvini amalga tatbiq etmoqdamiz.
Biz talabalarimizga o'zlari o'rganadigan narsalarni tanlash imkoniyatini beramiz, jumladan, asosiy va bilimlarni boyituvchi kurslar orqali o'zlari xohlagan ta'lim yo'nalishini davom ettirishlariga imkon beruvchi kurslar to'plamini taqdim etamiz.
Bizning asosiy o'quv rejamiz va uning kontenti asosan "1:1" qurilmalari kabi raqamli platformalar orqali taqdim etiladi va bu talabalarimiz o'rtasida bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otishga hissa qo'shadi.
Tabiiy fanlar, matematika, texnologiya va ingliz tili fanlari bo'yicha "McGraw Hill" kontentining xalqaro o'quv dasturimizga integratsiyalashuvi o'quvchilarimiz orasida ijodkorlik, qiziquvchanlik va cheksiz bilim olish istagini uyg'otmoqda.

Sinf xonalarimiz raqamli ta'limning eng so'nggi texnologiyalari, jumladan, raqamli doskalar, tarmoqli va simsiz Internet, raqamli kontent, talabalar uchun planshetlar va o'qituvchilar uchun barcha kerakli texnologiyalar bilan ta'minlangan maxsus burchaklarga ega.

Talabalar ingliz tilini baholash natijalariga ko'ra qabul qilingan bo'lsalar-da, ular ingliz tilini puxta egallagan bo'lishlari shart emas, chunki bizda Kanada va mahalliy o'quv dasturlarini o'rgatish bo'yicha tan olingan malakaga ega o'qituvchilar bor. Ingliz tilini o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan har qanday bola o'z ko'nikmalarini tez fursatda oshirishi o'quv rejamizning bir qismiga aylanadi.

Biz maktabimizda ta'lim olayotgan har bir talaba baxtli va mamnun bo'lishi hamda universitet hayoti va doimo o'zgarib turadigan dunyoda yuqori martabali shaxsga aylanishi uchun qo'ldan kelgancha harakat qilamiz.

**"Loyiha asosida o'rganish bizning talabalarimiz o'rtasida jamoaviy ish va hamkorlikni rag'batlantirish yondashuvimizning asosiy qismidir."**

# Tillar

**Kanadaning yillar davomida ildiz otib kelgan madaniyatiga sodiq xalqaro maktab sifatida biz ko'p tilda so'zlashish va multikulturalizmni qadrlaymiz.**

Biz yangi tilni o'rganish talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi, yangi madaniyatni o'rganib, tajriba orttirishga imkon beradi deb hisoblaymiz.

Zamonaviy dunyoda ikki va undan ortiq tilni bilish ish jarayonida ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Kanadaning yillar davomida ildiz otib kelgan madaniyatiga sodiq maktab sifatida biz ko'p tilda so'zlashish va multikulturalizmni qadrlaymiz.

O'quv dasturi asosan ingliz tilida o'qitiladigan bo'lsa-da, biz o'zbek va rus tillarini ham ta'lim berish tili sifatida kiritdik. Til kurslari o'qitayotgan tili o'z ona tili bo'lgan, o'qituvchilik kasbiga ishtiyoqi baland hisoblangan yuqori malakali ustozlar tomonidan o'qitiladi.

Talabalarning ta'lim jarayonidagi ehtiyojlariga qarab, sinfdan tashqari dastur doirasida maxsus til darslari ham tashkil etiladi.

# Maslahat berish jarayoni va talabalar farovonligi

**Maslahat berish dasturi har bir talabani shaxs sifatida va jamiyatimizning bir qismi sifatida rivojlantirishga qaratilgan.**

Keng qamrovli maslahat berish dasturi barcha talabalarning shaxsiy, ijtimoiy, hissiy va ta'lim bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirishni ko'zda tutadi.

Maktabning missiyasi dasturning qadriyatlari va maqsadlari bilan chambarchas bog'liq.

Bizning yuqori malakali maslahatchilarimiz nizolarni hal qilish, shaxsiy hamda ta'lim jarayonidagi o'sish, hissiy holat, empatiya va shu kabi boshqa muhim mavzular va muammolarni muhokama qilish uchun talabalar bilan individual tarzda va guruhlarda uchrashishlari mumkin.



# Ijodkorlik va innovatsiyalar

**Talabalarimizda sahnada, ilmiy va robototexnika laboratoriyalarida yoki badiiy dasturlar va spektakllar, jumladan, musiqiy chiqishlarda o‘z ijodlarini rivojlantirish va to‘liq salohiyatlarini namoyish etish uchun ko’plab imkoniyatlar mavjud.**

Raqamli o'quv platformalari talabalarga fan, san'at yoki raqamli texnologiyalar sohasida shaxsiy va akademik jihatdan muvaffaqiyatga erishish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi.

Biz o‘quv yili davomida iqtidorli talabalarning ijodkorligi, innovatsiyalari va ishtiyoqini namoyish etish maqsadida muntazam ravishda tanlovlar, shoular, ko’rgazmalar va konferensiyalarni tashkil qilamiz.

# Talabaning muvaffaqiyati

Biz talabalarimizni fikrlash va orzu qilishga undaymiz. Biz talabalarga keng imkoniyatlarni taqdim etamiz, ularning qiziqishlari va iste'dodlarini sinfdan tashqari rivojlantirishga harakat qilamiz. Sport, musiqa, san'at va robototexnikadan tortib milliy va xalqaro tanlovlarda ishtirok etishgacha, biz ishtiyoqli, keng qamrovli fikrlaydigan va ilg'or bo'lgan eng zukko talabalarni yetishtirib chiqarishga intilamiz.

Talabalarning muvaffaqiyat dasturlarida ishtirok etish orqali talabalarimiz qo'shimcha mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar va o'zlariga bo'lgan ishonch, yetakchilik va jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

"Jahon talabi darajasidagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish biz uchun juda muhim. Biz talabalarimizga darsdan tashqarida ham o'z ishtiyoqlari, iste'dodlari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratayotganimizdan faxrlanamiz".

# Talabalar klublari va hamjamiyatlar

**Talabalarning muvaffaqiyatga erishish yo'lidagi majburiyatimizning bir qismi sifatida biz talabalarga a'zo bo'lishlari uchun turli klublar va hamjamiyatlarni taklif qilamiz.**

Talabalar klublari va hamjamiyatlariga qo'shilish orqali ular sinfdan tashqarida o'zlarining kuch va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Ko'p holatlarda talabalar jamoa bilan ishlash orqali o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshiradilar.

Talabalar o'zlarining qiziqishlariga mos keladigan turli xil klublar va hamjamiyatlarni, masalan, san'at, fan, robototexnika, notiqlik, she'riyat, musiqa, sport va boshqalarni tanlashlari mumkin!

**“Biz uchun jahon andozalari darajasidagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Biz talabalarimizga an’anaviy sinf muhitidan tashqari ularning qiziqishlari, iste’dodlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan keng imkoniyatlarni taqdim eta olganimizdan faxrlanamiz.”**

# Talabalar sayohati

"Canadian School of Tashkent" talabalarining sinfdan tashqarida o'qib izlanishini rag'batlantiradi.

Ekskursiya - bu bir guruh talabalarning maktab nazorati ostida kampusni tark etishi.

Ekskursiyalar sinfda o'qitilgan tushunchalarni hayotda qo'llash va ularni mustahkamlash imkonini beradi.

Maktab kunining bir qismida ekskursiyalar rejalashtirilishi mumkin.

# Maxsus tadbirlar va musobaqalar

Talabalar muvaffaqiyatga erishishlari uchun tashabbus ko'rsatish biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Biz talabalarimizga an'anaviy sinf muhitidan tashqari ularning xohish-istaklari, iste'dodlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga hissa qo'shadigan keng imkoniyatlarni taqdim eta olishimiz bilan faxrlanamiz.

Biz talabalarni maktab, milliy va xalqaro miqyosdagi katta tanlovlar va maxsus tadbirlarni tashkil etish va ularda ishtirok etishga undaymiz.

Biz talabalarning iste'dodi va ishtiyoqini namoyon etuvchi tanlovlar, konferensiyalar, dasturlar, ko'rgazmalar va chiqishlarni muntazam tashkil etib boramiz.

So'nggi tadbirlar va musobaaqalar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun saytimizga kirishingiz mumkin.

# Talabalarga yaratilgan sharoitlar

Biz Toshkentning markazida joylashgan eng go'zal kampuslardan biriga ega ekanligimizdan juda faxrlanamiz. Bizning talabalarimiz sinf xonalar, maydonchalar va laboratoriyalarimizda sinfdoshlari bilan yangi bilimlarni o'rganish va birga o'ynashdan zavqlanishadi.

## Sport

Sport Kanada ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Biz sog' tanda sog'lom aql bo'lishiga ishonamiz. Shuning uchun investitsiyalarning bir qismi jahon andozalari darajasidagi sport inshootlariga yo'naltiriladi, shunda talabalar jismoniy faollik, raqobat va jamoa bo'lib ishlashdan bahramand bo'ladilar.

Fidoyi sport va jismoniy tarbiya o'qituvchilarimiz talabalarni namunali sportchi bo'lib yetishishlariga turtki beradilar.

Talabalar ko'p funksiyali yopiq va ochiq sport inshootlaridan foydalanishlari mumkin. Bugungi kunda kampusda futbol, tennis, voleybol va basketbol o'ynash mumkin.

## Ilmiy laboratoriya

Ilmiy laborator tajribalar va ilmiy laboratoriya jihozlari talabalar o'rtasida ilmiy bilimlarni rivojlantirishga va ilmiy izlanishlarga qiziqish uyg'otishga yordam beradi.

Laboratoriyamiz to'liq jihozlangan va yosh olimlarning yangi avlodini ilhomlantirishga tayyor.

Talabalar ilmiy tajribalarni o'tkazish jarayonida amaliy tajribaga ega bo'ladilar, ilmiy dalillar keltiradilar va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar.

## Robototexnika va innovatsion laboratoriya

Robototexnika - robotlarni yaratish, dasturlash va loyihalash bilan shug'ullanadigan texnologiya sohasi. Biz talabalarimizga robototexnika darslarini taqdim etamiz, bu esa ijodkorlik, dizayn va texnologiyalarga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi.

Robototexnika to'garaklari, milliy va xalqaro tanlovlar hamda rag'batlantiruvchi seminarlar orqali biz talabalarimizni fan va texnologiya sohasidagi yetakchilar hamda innovatorlar sifatida yetishtirishni maqsad qilganmiz.

## STEM laboratoriyalari

STEM laboratoriyalari talabalarda fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga (STEM) bo'lgan ishtiyoqni rivojlantiradi hamda ularni robotlar va 3D virtual reallik kompyuterlari bilan ishlash uchun yangi o'quv maydonlariga jalb qiladi.

Laboratoriya har bir yosh toifasiga moslashtirilgan zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan bo'lib, talabalar amaliy tajriba orttirishlari va o'z orzularini ro'yobga chiqarishlari mumkin. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarimizga turli sohalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga va STEM laboratoriyalarida aniqlangan muammolarga ijodiy yechim topishga yordam beradi.

## Maktab kutubxonasi

Kutubxona talabalarimiz o'rtasida uzluksiz bilim olishga mehr uyg'otadigan maskandir. Kutubxona zamonaviy kompyuterlar, guruhlarda ishlash uchun hududlar, ko'p tillardagi to'plamlar, storytelling, axborot savodxonligi va keng ko'lamli qo'shma/kursdan tashqari mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkonini beradi. Katta bosma resurslar to'plamidan tashqari, talabalarimiz jurnallar, gazetalar, kitoblar, musiqa va audiokitoblarni o'z ichiga olgan minglab raqamli kontentlardan foydalanishlari mumkin.

Talabalar ushbu raqamli resurslardan istalgan vaqtda, istalgan joyda, kompyuter yoki boshqa qurilmalar orqali foydalanishlari mumkin.

## Musiqa xonasi

Musiqiy ta'lim talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, qo'l-ko'z koordinatsiyasi, xotira va bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi hamda bolalar va yoshlarni porloq kelajakka tayyorlashga yordam beradi.

Musiqa xonasi ilhomlantiruvchi o'quv muhiti bo'lib xizmat qiladi, unda talabalar professional musiqa o'qituvchimiz bilan cholg'u asboblarini o'rganish, musiqa yozish va bastalash hamda turli badiiy va musiqiy chiqishlar uyushtirish ustida ishlaydilar.

## San'at xonasi

"Canadian School of Tashkent"da san'at (tasviriy san'at, drama, musiqa, san'atda qo'llaniladigan tamoyillar) o'quv dasturimizga kiritilgan. Biz san'atni asosiy o'quv dasturimizga kiritamiz, shuningdek, maxsus tarzda bezatilgan san'at xonamizda o'ziga xos badiiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantiramiz.

Biz san'atni o'rgatish talabalarimizning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va kelajakda muvafaqiyatli lider bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, badiiy ta'lim talabalarni o'z madaniyati bilan bir qatorda keng olam bilan ham bog'laydi.



## Multimedia xonasi

Multimedia xonasi talabalarimizga turli xil ta'lim texnologiyalarini o'rganish va ular bilan ishlashda ko'mak berishga mo'ljallangan. Masalan, talabalar multimedia taqdimotlarini ishlab chiqish va video, ovoz, grafika, fotosuratlar, animatsiya va boshqa raqamli texnologiyalarga oid ko'nikmalarni o'rganish uchun guruhlarda birgalikda ishlashlari mumkin.

Maktabimizdagi innovatsion va noyob manba sifatida multimedia xonasi talabalarimizga raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ko'nikmalarni interaktiv, maroqli va qiziqarli tarzda rivojlantirishga yordam beradi.

## Virtual reallik xonasi

"Canadian School of Tashkent"dagi Virtual reallik (VR) xonasi o'quvchilar tajriba orqali yangi bilimlarni o'rganadigan noyob hudud.

Ular muammolarni hal qiladilar, o'zaro hamkorlikda ishlaydilar va virtual reallik orqali manfaatli bilim oladilar.

VR orqali bilim olish talabalarimiz uchun ham inqilobiy, ham juda noodatiy tajriba bo'lib xizmat qiladi!

## MakerSpace

Kelgusi avlodning ilg'or fikrlovchi insonlari va innovatorlarni ilhomlantirish maqsadida biz talabalar ijodini ochib berish uchun MakerSpace'ni yaratdik.

MakerSpace barcha kerakli narsalar bilan jihozlangan Lego, muzqaymoq tayoqchalari va yelimli quroldan tortib elektron va raqamli to'plamlargacha, u ham talabalar orzusidagi laboratoriya, ham innovatsiya maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarimizni biror nimani yaratish orqali bilim olishga undash bilan biz ularni o'z bilimlarini to'g'ri yo'lga yo'naltirishga ilhomlantiramiz.

Buning natijasida o'quvchilarimiz bilim olishga qiziqib, bunga sarmoya kiritadilar.

## Kampus xavfsizligi

Xavfsizlik bo'limi xodimlari barcha talabalar, xodimlar va tashrif buyuruvchilar kampusimizda o'zlarini xavfsiz his etishlariga harakat qiladilar.

Kampus obyektlari bo'ylab 24x7 kuzatuv texnologiyasi qo'llanilishidan tashqari, bizning professional xavfsizlik guruhimiz o'quv yili davomida mobil patrul, avtomobil to'xtash joyini nazorat qilish va tezkor yordam xizmatlarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etadi.

## Birinchi yordam klinikasi

Biz talabalarimizning salomatligi, xavfsizligi va tibbiy ehtiyojlarini qondirish uchun sertifikatlangan tibbiy xodimlarga egamiz.

Maktabda kun davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yengil jarohatlar va kasalliklarga birinchi yordam ko'rsatish bizning ustuvor vazifamizdir.

## Kafeteriy

Biz ovqatlanish bolalarni hamisha foydali mahsulotlarni tanlash va to'g'ri ovqatlanishga undashi mumkinligini bilamiz.

Bizda sertifikatlangan oshpazlar va yaxshi o'qitilgan xizmat ko'rsatish guruhlari tomonidan doimo eng sara ingrediyentlardan tayyorlangan  yangi taomlar bo'ladi.

## Ochiq va yopiq maydoncha

Jismoniy tarbiya talabalar hayotining ajralmas qismi bo'lganligi sababli biz barcha yosh guruhlari uchun interaktiv va keng ochiq hamda yopiq maydonchalarni tayyorladik.

Talabalar o'zlarining yosh guruhlari va sinflariga ko'ra guruh sharoitida jismoniy mashg'ulotlarda qatnashadilar, shu jumladan futbol, basketbol, voleybolga mo'ljallangan ko'p maqsadli ochiq hududlar va tennis kortlaridan foydalanadilar.

## Yotoqxona

Biz boshlang'ich ta'limda o'qiyotganlar uchun xavfsiz yotoqxonani taqdim etamiz.

Ushbu yotoqxona maxsus xodimlar tomonidan nazorat qilinadi va yuqori sifatli to'shak, yostiq va adyol kabi qulay uyqu to'plamlariga ega.

# Qabul

**Farzandingiz uchun maktab tanlash siz qabul qiladigan eng muhim qarorlardan biridir. Biz ushbu qarorning muhimligini tushunamiz. Sizning qaroringiz biz uchun juda muhim.**

Maktabgacha ta'lim bosqichidan 8-sinfgacha yangi o'quv yili uchun arizalar qabul qilinadi.

Arizani onlayn tarzda bizning veb-saytimiz: canadianschool.uz orqali yoki qabul komissiyasiga tashrif buyurgan holda topshirishingiz mumkin.

Maktabimiz o'quv yili davomida talabalarni qabul qilsa-da, biz joylar cheklanganligi sababli ota-onalarga ertaroq ariza topshirishni tavsiya qilamiz. Muvaffaqiyatli nomzodlarga bo'sh o'rinlar navbat bo'yicha taqdim etiladi.

## Ochiq eshiklar kuniga tashrif buyuring

Ochiq eshiklar kuni maktabimiz, rahbariyatimiz, CST o'qituvchilari va talabalari bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Biz potensial talabalar nima sababdan CST xalqaro ta'limga ega bo'lish uchun ideal maktab ekanligini bilib olishlari uchun har hafta ochiq eshiklar kunini tashkillashtiramiz.

## Virtual sayohatni bron qiling

Agar siz kampusimizga shaxsan tashrif buyura olmasangiz, bizning jamoamiz sizga virtual turni taklif qiladi.

Bugunoq virtual turni bron qilish uchun veb-saytimizga kiring.

## Hoziroq ariza topshiring

Biz ota-onalar va bo'lajak talabalarimizga onlayn ariza shaklini taqdim etamiz. To'ldirilgan ariza shakli ko'rib chiqiladi. Qabul komissiyasi butun jarayon haqida gaplashib olish uchun siz bilan bog'lanadi. Onlayn ariza shaklini canadianschool.uz saytimiz orqali olishingiz mumkin.

## Biz bilan chat orqali suhbatlashing

Onlayn chat - bu ajoyib kampusimiz haqida gapirib berish va barcha savollaringizga javob berishning ajoyib usuli. Bizning veb-saytimizda va Telegram, Facebook va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarimizda chat funksiyasi mavjud. Bugunoq biz bilan bog'laning!

## Bizga tashrif buyuring

Kampus bo'ylab shaxsiy tur - Kanada maktabimiz bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Shaxsiy tur davomida siz jamoamiz a'zosi bilan bizning mehmondo'st va ajoyib kampusimizni o'rganib chiqasiz, maktab binolarini ko'rasiz va bizning xodimlarimiz va o'qituvchilarimiz bilan uchrashasiz. Qabul guruhimiz bilan uchrashuvga yozilib, kampusimizga shaxsiy ekskursiya qilishingiz mumkin. Siz bilan uchrashishni intiqlik bilan kutib qolamiz.

# O'qish uchun amalga oshiriladigan to’lov

**Biz o'z farzandlariga yuqori sifatli ta'lim berishni istagan oilalar uchun hamyonbop va inklyuziv variantni taqdim etishga intilamiz. Bizning o’quv siyosatimiz eng yaxshi va eng zo'r talabalarni jalb etishga qaratilgan bo'lib, biz ijtimoiy, iqtisodiy va etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha bolalar uchun yuqori sifatli Kanada ta'limini doimiy ravishda ta’minlab boramiz.**

Qabul komissiyamiz vakillari ota-onalarga o'qish uchun amalga oshiriladigan to’lovlar va mavjud imkoniyatlar bilan bog'liq har qanday savollarga javob berishadi. Ko'proq ma’lumot olish uchun bugunoq bizga qo'ng'iroq qiling.

“

Canadian School of Tashkent jahon miqyosidagi yuqori sifatli ta'limni beradi. Bizning to’lov tuzilma yuqori ilmiy sifat va zamonaviy ta'lim standartlarini o’zida aks ettiradi.

# Stipendiyalar

**“Canadian School of Tashkent”da stipendiya yuqori baholanadi va talabaning xizmatlari hamda salohiyatini e'tirof etish maqsadida beriladi.**

Ushbu stipendiyalar o'quv yili davomidagi imtihonlarning natijalari yoki baholar orqali aniqlanadi, shuningdek, talabalarning san'at, musiqa, sport, raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarda maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ko’rsatgan a'lo natijalarini e'tirof etish uchun beriladi.

Stipendiyalardan tashqari, biz bo'lajak talabalarimizga turli chegirmalarni taklif qilishdan mamnunmiz.

Mavjud stipendiyalar va chegirmalar haqida ko'proq ma'lumot olish uchun bizning qabul bo'limimizga murojaat qiling.

“

**Biz bo'lajak talabalarimizga stipendiyalar va chegirmalar taqdim etishdan bag’oyat mamnunmiz.**

## BIZ BILAN BOG'LANING

canadianschool.uz

info@canadianschool.uz

+998 (77) 777-85-85

04 Fargona Ko'chasi, Mirobod Tumani,
Tashkent sh., O'zbekistan

Canadian School
of Tashkent